BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA MEHNAT BOZORINI RIVOJLANTIRISH TADQIQOTLARI

Mirzapo‘latova Fotima Sanjar qizi
Qarshi Davlat Universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi 3-kurs talabasi
ORCID: 0009-0000-8363-9632
E-mail:mirzapolatovafotima@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash hamda mehnat bozorini rivojlantirish yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yoritilgan. Xususan, Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari institutining faoliyati, ilmiy izlanishlari, mehnat bozori monitoringi, kambag'allikni baholash, xalqaro hamkorlik loyihalari hamda Namangan shahar hokimligi bilan amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy hamkorlik natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, mehnat bozori, bandlik, ishsizlik, ilmiy tadqiqot, monitoring, demografiya, norasmiy bandlik, munosib mehnat, hududiy rivojlanish, Namangan shahri, "Aql markazlari".

Kirish O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlarda qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy asoslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti faoliyat yuritmoqda.

Institut 2024 yilda qayta tashkil etilib, mamlakatda demografik o'zgarishlar, mehnat bozorida yuzaga kelayotgan tendensiyalar, aholining daromadlari, bandlik, ishsizlik va kambag'allik holatini chuqur o'rganuvchi davlat ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida faoliyatini davom ettirmoqda.

Institutning asosiy maqsadi — kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatini ilmiy tahlillar, tadqiqotlar va amaliy takliflar bilan ta'minlashdan iboratdir.Kasbiy standartlar va mehnat bozori ehtiyojlariga mos ta'lim dasturlarini takomillashtirish; xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tadqiqot loyihalarini amalga oshirish.

Ilmiy yondashuv asosida hudud rivoji:

№	Faoliyat yo‘nalishi	Amalga oshiriladigan asosiy vazifalar
1	Kambag‘allik darajasini o‘rganish	Aholi daromadlari, turmush farovonligi va kambag‘allik holatini tahlil qilish, dinamikasini baholash
2	Mehnat bozorini monitoring qilish	Mehnat bozoridagi talab va taklifni o‘rganish, ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash
3	Bandlik va ishsizlik tadqiqotlari	Aholi bandligi holatini muntazam kuzatish, ishsizlik darajasini baholash
4	Norasmiy bandlikni tahlil qilish	Norasmiy bandlik ko‘lamini aniqlash va uni qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish
5	Demografik jarayonlarni o‘rganish	Aholi soni, migratsiya jarayonlari va ularning

		mehnat bozoriga ta’sirini tahlil qilish
6	Mehnat sharoitlarini tadqiq etish	Mehnat muhofazasi, xavfsizlik va gigiyena bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish
7	Kasbiy standartlarni takomillashtirish	Mehnat bozori ehtiyojlariga mos kasblar va ta’lim dasturlarini shakllantirish
8	Xalqaro hamkorlik	Xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish

Davlat rahbari tomonidan Namangan viloyatiga tashrif hamda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishlarda "Aql markazlari" hamda ilmiy tashkilotlarning mahalliy hokimliklar bilan yaqin hamkorlikda ishlash tizimini yo'lga qo'yish yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari institutiga Namangan shahar hokimligi biriktirildi.

Mazkur topshiriqlar doirasida salohiyatli mutaxassislar tomonidan shahardagi mavjud iqtisodiy ahvol, ichki zaxiralar hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlashga qaratilgan keng qamrovli ilmiy-amaliy ishlar tashkil etildi. Bu jarayonda "mahalla – hokim yordamchisi – ilmiy muassasa – shahar hokimligi" hamkorlik modeli asosida kompleks diagnostika, tezkor tahlil, idoraviy ma'lumotlar tahlili, so'rovnoma, fokus-guruh va ochiq muloqotlardan samarali foydalanildi.

Kambag‘allik va mehnat bozori tadqiqotlari institutining asosiy faoliyat yo‘nalishlari

Tadqiqotlar natijasida Namangan shahrining iqtisodiy o'sish nuqtalari, sanoat, xizmatlar sohasi, investitsiya, tadbirkorlik muhiti, eksport, mehnat bozori va mahallalardagi imkoniyatlar har tomonlama baholandi. Xususan, shahar viloyat sanoat mahsulotlarining qariyb 30 foizini va xizmatlar hajmining 22 foizdan ortig'ini shakllantirayotgani, mavjud sanoat zonalarida qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlari hamda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi ilmiy asoslarda ko'rsatib berildi.

O'rganishlar jarayonida tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir etayotgan infratuzilma, muhandislik kommunikatsiyalari, moliyaviy resurslar, elektr va tabiiy gaz ta'minoti, xizmat ko'rsatish obyektlari yetishmasligi kabi omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Ayniqsa, mahallalarda xizmat ko'rsatishning yangi turlarini tashkil etish, kam quvvatda ishlayotgan korxonalarni sog'lomlashtirish, muhandislik infratuzilmasini yaxshilash va tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar shakllantirildi.

Institut mutaxassislari mahallalarga chiqqan holda amaliy tahlillar o'tkazib, aholi va tadbirkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar asosida har bir hududning rivojlanish imkoniyatlarini belgilab berdi. Jumladan, "Haqiqat" mahallasida amalga oshirilgan tahlillar natijasida qo'shimcha tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish, budjet tushumlarini ko'paytirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

O'rganishlar natijalari asosida Namangan shahri uchun kompleks "Yo'l xaritasi" shakllantirildi. Unda sanoatni rivojlantirish, transport va muhandislik infratuzilmasini takomillashtirish, xizmatlar sohasini kengaytirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, ekologik loyihalarni amalga oshirish, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslar o'z ifodasini topdi. Jumladan, sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash, ko'priklar va ichki yo'llarni qurish hamda rekonstruksiya qilish, kichik sanoat zonalarini muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlash, ekoparklar tashkil etish, kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish kabi yo'nalishlar bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Shu bilan birga, Institut tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida takomillashtirish yuzasidan ham muhim takliflar ishlab chiqildi. Xususan, shahar hokimligi

va unga qarashli tashkilotlarda kadrlar diagnostikasini o'tkazish, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini baholash, ularni "Aql markazlari" ishtirokida maqsadli o'qitish hamda Business Process Engineering asosida boshqaruv jarayonlarini qayta tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlandi. Bu takliflar mahalliy boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va natijadorlikka erishishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, mazkur hamkorlik modeli ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijadorligini ta'minlash, mahalliy muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularning yechimi bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishda samarali vosita ekanligini namoyon etdi. Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti tomonidan Namangan shahar hokimligi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar davlat rahbari belgilab bergan "Aql markazlari" faoliyatining amaliy ifodasi bo'lib, hududlarni ilmiy yondashuvlar asosida kompleks rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy o'sishning yangi nuqtalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi materiallari.
3. Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti ilmiy-tahliliy materiallari.
4. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). Key Indicators of the Labour Market (KILM).
5. Jahon banki (World Bank). Kambag'allik va bandlik bo'yicha tahliliy hisobotlar.
6. Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) materiallari.
7. International Poverty Reduction Center in China (IPRCC) tadqiqotlari.